

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**JUMAYEV RUZOKUL XOLIQULOVICH**

**SADRIDDIN AYNIYNING TOJIK VA O‘ZBEK TILLARIDAGI  
ASARLARI TOPONIMLARI TADQIQI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Jumayev Ruzokul Xoliqulovich**

Sadriddin Ayniyning tojik va o‘zbek tillaridagi asarlari toponimlari tadqiqi..... 3

**Жумаев Рузокул Холикулович**

Исследование топонимов произведений Садриддина Айни на таджикском и узбекском языках..... 23

**Jumayev Ruzokul Xoliqulovich**

Scientific analysis of toponyms in Tajik and Uzbek works of Sadriddin Ayni..... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**JUMAYEV RUZOKUL XOLIQULOVICH**

**SADRIDDIN AYNIYNING TOJIK VA O‘ZBEK TILLARIDAGI  
ASARLARI TOPONIMLARI TADQIQI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil1126 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Choriyev Tavakkal Ravshanovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Axmedova Dilfuza Rafukjanovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Homidov Dilmurod Rajabovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ da majlislar zalida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector) @samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Q.Muhiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**E.R.Musurmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash seminar raisi o'rinbosari,  
filologiya fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida kontekstual toponimlarning topoleksik, topostilistik, topoformant jihatlarini ochib berishga va ushbu yo‘nalishlarda toposintaktik komponentlar, topoleksik talqin va toponimlarning etnolingvistik birliklari hamda toponimlarning matn pragmatikasi xususiyatlarini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasida tilshunoslikda mintaqadagi xalqlar madaniy merosining bir qismi sifatida geografik nomlar, oykonim, oronim, gidronim, zootoponim, antropotoponim, etnotoponimlarning morfologik, sintaktik tomonlarini hamda sinonimik, antonimik, omonimik kabi munosabatlarini, leksemalarning xususiyatlarini, affiksatsiya usuli asosida strukturaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan toponimlarning vazifalarini asoslash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida geografik nomlarning etnolingvistik, lingvokulturologik, topomorfologik komponentlari, topoleksik talqinlari, toposintaktik komponentlar stilistikasi yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tilshunoslikda kontekstual toponimlarning leksik qatlamlaridagi faol qo‘shimchalarning munosabat turlarini asoslash, fors-tojik, turk-o‘zbek, arabcha qatlamlari, shuningdek, oykonim, komonim, astionim, urbanonim, godonim, agoronim, ekklesionim, oronim, gidronim, zootoponim, antropotoponim, etnotoponimlar guruhlarini leksik semantik jihatdan izohlash, badiiy asar kontekstida ularning vazifalari hamda makonda etnonimlarning rivojlanish bosqichlari, til qatlamidagi bilingvizm hodisasini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy qadriyatlar zamirida shakllangan joy nomlarining leksik, lingvistik, lingvokulturologik tomonlariga e‘tibor qaratilmoqda. Buning natijasida toponimlarning leksik, grammatik, stilistik, strukturaviy tuzilishi bilan bog‘liq nutq uslublari hamda ularning badiiy asar kontekstidagi vazifasini o‘rganish muhim omillardan biri hisoblanmoqda. “Ma‘rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”<sup>1</sup>. Zotan, badiiy ijodda toponimlarni o‘rinli qo‘llash topolingvistik bilimdonlik va tajribani talab etadi. Ushbu lisoniy hodisalarni zullisonayn adib Sadriddin Ayniy asarlari misolida ko‘rib chiqish, kontekstual toponimlar mohiyatini topoleksik, topostilistik, topoformant aspektlarida yoritib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // Xalq so‘zi, 2023-yil, 23-dekabr.-№274 (8617)

qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, bajarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarorlari, "Adabiyot va san'at, lug'atni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tojik va o'zbek xalqlari orasida zullisonayn adib sifatida shuhrat qozongan, turli xil janrda samarali ijod qilgan Sadridin Ayniy asarlarining tili va uslubi bir qator tojik va o'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan. Tadqiqot natijasi o'laroq doktorlik, nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar yozilgan, monografiya, ilmiy maqola va tezislari chop etilgan.

Kontekstual toponim Sadridin Ayniy ijodi misolida ilk bor yaxlit monografik tarzda tadqiq etilmoqda. Sadridin Ayniy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda adabiyotdagi toponimlar masalasi ko'rib chiqilgan. Toponimshunos olim M.Shodiyevning dissertatsiyasida, R.Amonovning maqolasida Sadridin Ayniy asarlarida geografik nomlarning qo'llanish maqsadlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan<sup>2</sup>. Shuningdek, badiiy adabiyotda toponimlardan foydalanishning ayrim jihatlari G.Sh.Orazgaliyev, I.P.Antsiferov, N.A.Borsova va N.P.Gusarova<sup>3</sup> tadqiqotlaridan joy olgan.

O'zbek toponimshunosligining nazariy asoslari yaratilishida E.Begmatov, T.Nafasov, Sh.Qodirova, T.Rahmatov, J.Latipov, L.Karimova, S.Nayimov, Z.Do'simov, N.Adizova, H.To'rayev, X.Xolmo'minov, B.O'rinboyev, A.Muhammadjonov, A.Otajonova va S.Karimovlarning maqola, monografiya va dissertatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Шодиев М. Лингвистический анализ топонимов произведений С.Айнӣ. Кан.дисс... – Душанбе, 1994. – 191 с.; Амонов Р. География осори бадеии устод Айнӣ. Чашномаи Айнӣ. Ҷузъи V. – Душанбе: Дониш, 1978. – С.13-23.

<sup>3</sup> Оразгалиева Г.Ш. Тюркоязычных топонимы в прозе А.С.Пушкина: Автореф.дисс... канд.фил.наук. – Алмаата, 1990. – С.4-7.; Анциферов И.П. Петербург Достоевского. – Петербург: Изд. Брокгауз-Ефрон, 1923: – С.108.; Борцова Н.А., Гусарова Н.П. Ономастика в цикле рассказов М.Горького "По Руси". – Рига: ЛГУ им. П.Стучки, 1980.– С.36.

<sup>4</sup> Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Фил. фан. ном. дис. – Тошкент, 1968. – 301 б.; Кадырова Ш. Микропонимы Ташкента: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. –28 с.; Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд. Советская тюркология. – Баку, 1973.–№ 4. – С.43-50.; Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Фил. фан. ном. дис. –Тошкент, 1975. –219 б.; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. –96 б.; Найимов С. Ойконимы Бухарской области: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. –20 б.; Адизова Н. Бухоро тумани микропонимларининг лексик-семантик тадқиқи.: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –

Sadriddin Ayniy asarlari xilma-xil leksik tizimni tashkil etuvchi juda ko'p sonli geografik nomlarni o'z ichiga oladi, ular birinchi marta strukturaviy-semantik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi, toponimlarning uslubiy xususiyatlari, toponimlardagi topoformant hodisalar o'rganildi hamda ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sadriddin Ayniy asarlaridagi kontekstual toponimlarning topoleksik, topostilistik, topoformant jihatlarini, kontekstual toponimlarning leksik qatlamlari hamda lug'aviy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tojik va o'zbek tillarida toponimning muhim o'rin tutishi, badiiy asar kontekstida o'zgarmagan toponimlar va ularning leksik, semantik tomonlari, genezisini ochib berish;

zullisonayn adib Sadriddin Ayniy ijodidagi toponimlarning leksik-semantik, leksik-stilistik, morfemik funksional jihatlarini badiiy asar matnlari asosida qiyosiy asoslash;

Sadriddin Ayniy asarlari tarkibidagi makrotoponim va mikrotoponimlarning miqdoriy nisbatini belgilash;

badiiy matn tarkibidagi toponimlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish, tasniflash orqali oykonim, oronim, gidronim, zootoponim, antrotoponim, etnotoponimlar hamda boshqa turdagi toponimlarning stilistik xususiyatlarini dalillash;

kontekstual toponimlarning badiiy-tasviriy nutqda tutgan o'rni va ularning emotsional-ekspressivlik jihatlarini tavsiflash orqali Sadriddin Ayniyning toponimlarni qo'llash sohasidagi ijodiy mahoratini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Sadriddin Ayniyning tojik va o'zbek tillarida yaratilgan memuar asari ("Esdaliklar", trilogiyasi ("Odina", "Doxunda", "Qullar" ("Фуломон"), qissa ("Sudxo'ring o'limi") hamda tarixiy-badiiy ocherklar ("Muqanna qo'zg'oloni", "Buxoro jallodlari", "Tojik xalqi qahramoni Temurmaliq", "Qisqacha tarjimayi holim", "Yetim") kabi asarlari olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Sadriddin Ayniy nasriy asarlari leksik qatlamidagi toponimlarning topoleksik, topostilistik, topoformant jihatlarini tashkil etadi.

---

2021. –50 б.; Тўраев Х. Бухоро топонимикаси.-Бухоро: Дурдона, 2021.–273 б.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. –104 б.; Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988. – Б.73-75.; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. – 53 б.; Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд, 1997. – 202 б.; Мухаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир. Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994. – Б.15-17.; Бегматов Э. Истиклол ўлкасининг топонимик сиёсати. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 3. – Б.3-9.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 94-111. Каримов С. С.Айнийнинг "Эсдаликлар" асари топонимик манба сифатида. Педагогик маҳорат. -Бухоро, 2004. №3. -Б.35-41.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnolingvistik, lingvostatistik, kontekstual, biografik, struktural tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sadriddin Ayniy ijodida kontekstual toponimlarning *Guzari Hullabofon*, *Guzari Sorbonon*, *Kemuxtgaron* kabi topoleksik, *Mexchagaron*, *Kamongaron* kabi topomorfologik xususiyatlari hamda badiiy-tasviriy ifodalarda makrotoponim va mikrotoponimlarning ijodkor xayoloti orqali tasvirlangan *Ko'li Nayzor*, *Dehai Sholipoya*, *Darai Gardani Javzo* singari to'qima va *Shosh*, *Kesh*, *Asrushana* kabi tarixiy nomlari mavjudligi aniqlangan;

kontekstual toponimlarning leksik qatlami – fors-tojik, turk-o'zbek, arabcha qatlamlari, shuningdek, oykonim, komonim, astionim, urbanonim, godonim, agoronim, ekklezionim, oronim, gidronim, zootoponim, antropotonim, etnotoponimlar guruhlari mavjudligi aniqlanib, ularning badiiy asar matnida sintetik, dinamik, analitik vositalarda xarakter psixologiyasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

badiiy matn tarkibidagi toponimlarning topoleksik, topofonetik, topostilistik, topoformantlarda I izofasining faolligi, o'zgaruvchanligi va kontekstual toponimlarning oykonim, urbanonim, gidronim, oronim, etnotoponim, antropotonim, zootoponim kabi turlarga nisbatan bo'linganligi “Odina”, “Doxunda”, “Qullar”, “Sudxo'ring o'limi” asarlari orqali isbotlangan;

Sadriddin Ayniy asarlarida joy nomlarining etnotoponim, antropotonim, gidrotoponim, fitotoponim kabi kasb-kor atamalari asosida shakllangan semantik tiplari, o'z va ko'chma ma'noga ega oykonimlarning onomastik leksika sathi me'yorlariga mosligi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan tilshunoslik fanining yangi yo'nalishi bo'lgan toponimiyani muayyan ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitish, badiiy va boshqa turdagi matnlar tarkibidan kontekstual toponimlarni topish hamda ularning lisoniy jihatlarini oydinlashtirish, shuningdek, ijodkorning individual mahoratini belgilashda xizmat qilishi asoslangan;

badiiy matn tarkibidagi toponimlar misolida asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy ma'lumot berishi, “Toponim”, “Matn tilshunosligi”, “Tojik tili tarixi”, “Hozirgi tojik adabiy tili”, til va madaniyat masalalarini o'rganuvchi “Lingvokulturologiya” fanlari bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalar, toponimik lug'atlarning mukammallashuvi, shuningdek, badiiy asar tarkibidagi toponimlarning ifodalanishi xususida aniq fikr va mulohazalar bayon etish malakasini oshirishda muhim manba bo'lishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq belgilanganligi, uning talab darajasida ilmiy asoslanganligi, nazariy ma'lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy, badiiy manbalardan olinganligi, metodik jihatdan mukammal asoslanganligi, tavsiflash, komponent tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan e'tirof etilganligi, muammo milliy madaniyat va

tilning o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra yoritilganligi hamda jahon tilshunosligining yangi yo‘nalishlari bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kontekstual toponimlarning topoleksik, topofonetik, topostilistik, topoformant jihatlarini tadqiq etishda asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning ilmiy aniq materiallaridan tojik va o‘zbek tilshunosligida, xususan, toponim lug‘atlarini tuzishda, amaldagi toponimik lug‘atlarini to‘ldirish va mukammallashtirishda, toponim bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanma yaratishda hamda ushbu mavzu bo‘yicha tanlanma kurslar, seminarlar tashkil qilishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Sadridin Ayniy asarlarida qo‘llangan toponimlarning xalq og‘zaki ijodi namunalarida aynan takrorlanishiga oid qiyosiy adabiyotlardan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

Sadridin Ayniy ijodida kontekstual toponimlarning Guzari Hullabofon, Guzari Sorbonon, Kemuxtgaron kabi topoleksik, Mexchagaron, Kamongaron kabi topomorfoloqik xususiyatlari hamda badiiy-tasviriy ifodalarda makrotoponim va mikrotoponimlarning ijodkor xayoloti orqali tasvirlangan Ko‘li Nayzor, Dehai Sholipoya, Darai Gardani Javzo singari to‘qima va Shosh, Kesh, Asrushana kabi tarixiy nomlari mavjudligiga oid xulosalardan FA-F-1-005-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017–2020 y.y.) nomli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023-yil 22-maydagi 219/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada Sadridin Ayniy asarlaridagi folklor motivlari, qadimiy joy nomlari, ularning lingvistik tahlili, adabiy tur va janrlarning genezisi, adib ijodidagi epik janrlarning o‘ziga xosligi, xarakter yaratish mahorati, axloqiy-estetik, lirik qahramon psixologiyasi, dramatik asarlaridagi yumoristik talqinlar mohiyati ochib berilganligi asos bo‘lgan;

kontekstual toponimlarning leksik qatlami – fors-tojik, turk-o‘zbek, arabcha qatlamlari, shuningdek, oykonim, komonim, astionim, urbanonim, godonim, agoronim, ekklezionim, oronim, gidronim, zootoponim, antropotoponim, etnotoponimlar guruhlari mavjudligi aniqlanib, ularning badiiy asar matnida sintetik, dinamik, analitik vositalarda xarakter psixologiyasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishidan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza”, “Payomi ro‘z” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 31-maydagi 1/123-son ma‘lumotnomasi). Natijada Sadridin Ayniy asarlarining toponimlarning tadqiq qilish va ularning leksik qatlamlarini aniqlash ko‘p jihatdan Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarining yashash joylarini aniqlashtirishda tojik va o‘zbek tillarining o‘zaro bog‘liqligi hamda Buxoro shahridagi guzari Zargaron, guzari Sari puli oshiqon, Buxoro viloyatidagi Peshku, Zandane, Vardonze, Dehnavi Abdullojon, Soktare va boshqa shunga o‘xshash toponimlarning topoleksik, topostilistik, topoformant xususiyatlaridan xabardor bo‘lishda bevosita xizmat qilgan;

Sadriddin Ayniy asarlarida joy nomlarining etnotoponim, antropotoponim, gidrotoponim, fitotoponim kabi kasb-kor atamalari asosida shakllangan semantik tiplari, o‘z va ko‘chma ma‘noga ega oykonimlarning onomastik leksika sathi me‘yorlariga oid xulosalardan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi huzuridagi “Nilufar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlari materiallarini tayyorlashda foydalanildi. Natijada yoshlarning umuminsoniy g‘oyalarning kamol topishiga, joy nomlari bilan bog‘liq xususiyatlari, so‘z boyligining oshishiga xizmat qilgan;

badiiy matn tarkibidagi toponimlarning topoleksik, topofonetik, topostilistik, topoforamlarda I izofasining faolligi, o‘zgaruvchanligi va kontekstual toponimlarning oykonim, urbanonim, gidronim, oronim, etnotoponim, antropotoponim, zootoponim kabi turlarga nisbatan bo‘linganligi “Odina”, “Doxunda”, “Qullar”, “Sudxo‘rning o‘limi” asarlari asosidagi tahlillaridan 5111700-Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 20-oktabrdagi 441-son buyrug‘i, 441021 raqamli ruxsatnomasi). Natijada voqealar ifodasining o‘ziga xos xususiyatlari, munosib yechimga ega ekanligi va toponimlarning geografik xususiyatlarini sodda tushuntirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyalarida ma‘ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 17 ta ilmiy maqola va tezis chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 5 ta respublika hamda 5 ta xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, ishda qo‘llangan tadqiqot metodlari va amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaga oid ilmiy nashrlarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar aniq ifodalangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Dunyo tilshunosligida toponimlarning nazariy tadqiqi va Sadriddin Ayniyni kontekstual toponimlardan foydalanish mahorati”** sifatida belgilanib, dastlabki fasl **“Dunyo tilshunosligida**

toponimlarga oid tadqiqotlar tarixi va toponimlarning badiiy asarlardagi leksik ifodasi” deb nomlanadi. Toponimlar o‘zining leksik, grammatik, stilistik, strukturaviy tuzilishi bilan nutq uslublarida hamda turli xil janrlardagi asarlar kontekstida muhim o‘rin egallaydi. El-yurt orasida zullisonayn adib sifatida shuhrat qozongan Sadriiddin Ayniyning toponimlarni qo‘llashga oid o‘ziga xos ijodiy yondashuvlar orqali mislsiz mahorati ochib berildi. Ta’kidlash joizki, tojik tilida toponimika bilan bog‘liq quyidagi atamalar qo‘llaniladi: antroponim, toponimik asos, toponimik so‘z, toponimik maydon, toponimik mintaq, toponimik tizim, toponimik o‘rganish, toponimik substrat, toponimizatsiya, xotira toponimiyasi, toponimiya bayoni kabi.

Toponim va uning nazariy asoslarini oydinlashtirish maqsadida tojik va o‘zbek tillarida tartib berilgan bir qator filologik va toponimik istiloh lug‘atlari, toponimshunos olimlar tomonidan oliy o‘quv yurti talabalari uchun yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, toponimik tadqiqotlarga bag‘ishlab yozilgan dissertatsiya, monografiya va maqolalarda o‘z ifodasini topgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarga e’tiborni qaratdik. Aytish joizki, filologik lug‘atlarda, xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “toponim” atamasi o‘zlashma so‘z ekanligi, yunon tilidan o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashma so‘z sifatida kirganligi va bugungi kunda o‘zbek tilida “biror joyning, hududning geografik (aholi punktlari, daryo, ko‘l va boshqa) nomlar majmui”, shuningdek, “leksikologiyaning geografik atamalarini o‘rganadigan bo‘limi” ma’nosini bildirishi qayd etilgan<sup>5</sup>.

Toponimlarni badiiy asarlarda ifodalash va tadqiq qilish bugunning hodisasi emas. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari ham joy nomlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Asarga ilova qilingan o‘z davri bilan bog‘liq dunyo xaritasidagi yuzga yaqin nomdan tashqari, matnda 82 ta qishloq va shahar nomi, 68 ta mamlakat, viloyat, o‘lka nomi, 25 ta dengiz, ko‘l, daryo, soy kabi turli toponimik atamalar keltirilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida Marg‘inon - Marg‘ilon, O‘zgand - O‘zgan, Qubo - Quva, Xo‘qon - Qo‘qon, Rushdon - Rishton, Sayxun - Xo‘jand suyi yoki Sir suyi - Sirdaryo kabi geografik nomlarni bildiruvchi toponimlar qo‘llanilgan.

“Farhangi zaboni tojiki”da “toponimika” so‘zi “мачмӯи номҳои ҷуғрофии ягон мамлакат ё мавзеъ”, “як қисми вожашиносӣ, ки номҳои ҷуғрофиро меомӯзад” tarzida izohlangan<sup>6</sup>. Tojik toponimshunos olimlaridan R.X.Dodixudoyev, J.Alimiy, O.G‘afurov, D.Homidov, Sh.Haydarov, A.Abdunabiyevlarning toponimiyaning nazariy jihatlarini o‘rganish va tadqiq etishda xizmatlari beqiyosdir. So‘nggi o‘n yil mobaynida ko‘plab mintaqaviy tadqiqotlarda formativ tahlil va ularning tarkibiy tahliliga e’tibor qaratilayotganligi amaliyotini kuzatish mumkin. Ushbu amaliyot bevosita N.Ofaridayev, O.Mahmadjonov, M.Ayubova, D.Hamidov, N. Xojayeva, S.Sheraliyeva, J.Alimiy, S.M.Imomzoda, Sh.Ismoilov, B.To‘rayevlarning tadqiqotlarida yaqqol ko‘zga

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008.– Б. 149.

<sup>6</sup> Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷ.2. – Душанбе, 2008. – С. 350.

tashlanadi<sup>7</sup>. Biz sanab o‘tgan ilmiy tadqiqotlarda toponimlarning badiiy asarlar tarkibidagi lingvistik xususiyatlari yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Bizning dissertatsiyamizda toponimning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini tojik va o‘zbek toponimshunosligida o‘zining turli xil janrlarda yaratilgan asarlari bilan beqiyos hissa qo‘shgan Sadriddin Ayniy ijodi misolida oydinlashtirildi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Sadriddin Ayniyning kontekstual toponimlardan foydalanish mahorati va o‘ziga xos uslubi” tarzida nomlandi. Sadriddin Ayniy yaratgan adabiy geografik nomlarni haqiqiysidan ajratish qiyin. Badiiy matnda yozuvchi yaratgan real va badiiy toponimlar bir xilda idrok qilinadi. Ana shunday to‘qima geografik nomlardan “Doxunda” romani va “Oдина” povestida qo‘llangan “Darayi Nihon” oronimidir. Adib ushbu daraning joylashuvi va go‘zal tabiatini shunday ta’riflaydiki, bunday daraning borligiga shubha qolmaydi. O‘zi yaratgan toponimning haqiqiyliigi va butunlay tabiiy ko‘rinishi uchun muallif ushbu denotatsiyaning ikkinchi metaforik shaklini yaratadi.

“Агар аз Сари Чўй баромада аз даруни кўҳсор ба Кўрғонтеппа пинҳонӣ рафтани шавед, роҳи шумо аз даруни Дараи Ниҳон меафтад. Дараи Ниҳон, ба номи дигар “Тангниҳон” яке аз дараҳои кўҳистони Ҳисори Шодмон аст. Ин дара, чунон ки аз номаш маълум аст, аз назарҳо пинҳон буда, танҳо аз ду тарафаш: тарафи Сари Чўй ва Боботоғи ду тангно намоён мешавад...”<sup>8</sup>.

Mahoratli adib Sadriddin Ayniy kontekstga Darayi Nihon oronimi bilan birga, Chashmasor gidronimini joylashtiradi. Bu gidronim muallif tomonidan quyidagicha tasvirlangan: Chashmasor. Шумо гумон накунед, ки ҳар кадоми чашмаи дар ин чашмасор буда ба қадре сероб аст, ки як санг ё ним санги осиеро мегардонад<sup>9</sup>.

Sadriddin Ayniy asarlari toponimini kartotekalash jarayonida, adib ijodida bor-yo‘g‘i ikkita kriptonim borligi kuzatildi. Ular - M. va R. komonimlari.

“Qullar” romanida M. komonim bir necha marta takrorlangan bo‘lsa-da, biz bir xil denotat haqida fikr yurityapmiz. Buxoro viloyati toponimiyasida Sadriddin Ayniyning “M”. bosh harfli asarlarida jami 16 ta nom, jumladan, quyidagi misollardagi kriptonimlar ham uchraydi:

<sup>7</sup> Офаридаев.Н. Ойконимияи Вилюяти Мухтори Кўҳистони Бадахшон (таҳқиқоти забоншиносӣ). [Матн] /Н. Офаридаев. – Душанбе, 2001. – 163 сах.; Маҳмадҷонов, О. О. Топонимия ва микротопонимияи қисмати шимолии водии Ҳисор. [Матн] /О. О. Маҳмадҷонов. – Душанбе, 2010. – 228 сах.; Аюбова М. Антропонимияи тоҷикони навоҳии Шаҳритузу Кубодиён (номҳои ашхоси). [Матн] /М. Аюбова. – Душанбе: Эр-граф, 2013.– 192 сах.; Ҳомидов Д. Топонимияи водии Кешрӯд. [Матн] /Д. Ҳомидов. – Душанбе, 2014.– 168 сах.; Ҳомидов Д. Таҳқиқи забоншиносии гидронимҳои мавзеоҳои тоҷикнишини Мовароуннахри таърихӣ: автореф... дисс.. барои дарёфти дараҷаи илмии доктори илмҳои филологӣ. [Матн] /Д. Ҳомидов. – Душанбе, 2018. – 48 сах.; Ходжаева Н. Динамика развития географических представлений о Центральной Азии в древней и раннесредневековой иранской традиции. 160 [Матн] /Н. Ходжаева. Дисс. на соиск. учен. степ. док. ист. наук. – Душанбе, 2016. – 304 с.; Шералиева С. Ташаккули гидронимияи вилюяти Хатлон. [Матн] /С. Шералиева. – Душанбе, 2014. – 184 сах.; Алимӣ Ҷ. Топонимияи минтақаи Кӯлоб. [Матн] /Ҷ. Алимӣ. – Душанбе: Эр-граф, 2015. – 420 сах.; Имомзода Муҳаммадҷосиф Сайидали. Пажӯҳише дар номшиносӣ ва номгузорӣ. [Матн] /Сайидали Муҳаммадҷосиф Имомзода. – Душанбе: Эрграф, 2019. – 132 сах.; Исмоилов Ш. Топонимияи водии Рашти Тоҷикистон. [Матн] /Ш. Исмоилов. – Душанбе, 2019. – 508 сах.; Тӯраев Б. Б. Таҳқиқи лесикӣ-семантикӣ ва калимасозии микротопонимияи водии Яғноб. [Матн] / Б. Тӯраев. Диссертатсияи номз. илм. филол. – Душанбе, 2010. –223 сах.; Тӯраев, Б. Микротопонимияи водии Яғноб. [Матн] /Б.Тӯраев. – Душанбе: Ирфон, 2019. – 272 сах.

<sup>8</sup> Айнӣ С. Дохунда. Чилди 2. – Сталинобод: “Нашриёти давлатии Тоҷикистон”, 1960. –С.7.

<sup>9</sup> O‘sha joyda. – В.8.

1. “Shofirkom tumaniga qarashli M. qishlog‘ida Abdurahimboy hovlisida ishlar qizigan edi”.

2. “Shofirkom tumani, Denavi Abdullajon tobini, M. qishloqlik qal‘achi Abdurahimboyning sakkiz nafar quli, bir cho‘risi va bir qulbachchasi qochgan...”<sup>10</sup>.

Sadriddin Ayniy toponimik ma‘lumotlarni quyidagi ijodiy yondashuvda ifodalaydi:

a) toponimning boshlang‘ich tuzilishini qavs ichida, ba‘zan qavssiz beradi, toponimning hozirgi shaklini eslatadi;

b) havolalarda izohli ma‘lumotlar bayon etish orqali tushuntiradi;

v) har bir asarining oxirida tegishli ma‘lumotlarni keltiradi.

Toponimlarning bu qismini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hozirgi shakli asl nusxadan butunlay farq qiluvchi toponimlar. Ushbu guruhdagi toponimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini Sadriddin Ayniy asarlaridan tanlangan Shosh, Asrushana, Jayhun, Samara, tumani Jondor, Hisor, Tus, Zozmon allonimlari orqali oydinlashtiramiz.

Masalan: “Шош (Тошканд) ва Асрушана (Истаравшан Уротеппа)-ро ба Яхъё бинни Асад дод...”. “Арабҳо... ба Хуросон хучум оварда то лаби Чайхун (дарёи Аму) расида бошанд ҳам...”; “... танҳо чарогоҳҳои кўхистони Ҳисор, ки дар он вақтҳо он чо Чағониён номида мешуд” ....; “Қутайба бинни Муслим баъд аз забт кардани Тахористон, ки марказаш Балх буд, дар соли 88(707) аз Аму гузашта, Чағониёнро, ки марказаш Шумон (Шомон) буд, забт кард. Нахшаб, Кеш, Пайканд, Бухоро, Вардонзеҳ ва Самарқандро ба даст даровард”. “Баъд на он дар зери сардории Қаҳтаба бинни Шабиб ба тарафи Тус (Машҳад) ва Ироқ аскар фиристод”; “... дар баъзе деҳаҳои Бухоро... ва дар Зозмон (ҳоло Розмоз мегуянд, ки дар райони Вобканд аст) мондаанд<sup>11</sup>”; ба тумани Қондор (райони Свердлови ҳозира) қозӣ шуда рафт<sup>12</sup>.

2. Qisman fonetik o‘zgarishlarga uchragan toponimlar. Toponimlarni atash va tanlashda har bir fonema muhim ahamiyat kasb etadi. Toponimlar doimiy ravishda fonetik prinsip va imloviy qoidalarga muvofiq yozib kelinmoqda. Toponim tarkibidagi tovush noto‘g‘ri talaffuz etilsa, unda lug‘aviy ma‘no o‘z mohiyatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Sadriddin Ayniy, birinchi navbatda, toponimlarning talaffuzi va imlosiga e‘tibor qaratadi. Shu bilan bir qatorda ayrim toponimlarni qisman fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llaydi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Sadriddin Ayniy asarlarida toponimika va mikrotoponimiyalarning geografik nomlarni ifodalashdagi fonostilistik xususiyatlari” tarzida nomlandi. Toponimika va mikrotoponimiya geografik nomlarning ikki yarusini tashkil qiladi, mikrotoponimlar esa eng quyi, eng oddiy yarusga tegishli. Tarkibiy nomlar o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan va toponimiyaga emas, balki mahalliy dialektga moyil bo‘lgan konstatatorlar, mavjud narsalarni

<sup>10</sup> Айний С. Асарлар. Учинчи том. Куллар. –Тошкент: Бадиий адабиёт” нашриёти. 1964. – Б. 49-78.

<sup>11</sup> Айний С. Қаҳрамони халқи тоҷик Темурмалик; Исёни Муқаннаъ.– Душанбе: “Маориф”, 1978. – С.167,88,7,8,89,105,154,155.

<sup>12</sup> Айний С. Мухтасари тарҷимаи ҳоли худам. Чаллодони Бухоро; Одина. Ҷилди 1. – Сталинобод: “Нашриёти давлатии Тоҷикистон”, 1959. – С.51.

ro'yxatga oluvchilardir. Natijada mikrotoponimlar va toponimlar o'rtasidagi aloqa ancha zaif bo'lib, leksik va tarixiy, lekin tizimli toponimik emasligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun bu darajalar ierarxik jihatdan turli darajalarni tashkil etadi. Mazkur makrotoponimlarning topoleksik, topostilistik, topoformant xususiyatlarini batafsil sharhlash imkoni bo'lmaganligi bois, ulardan Buxoro, Buxoro shahri guzarlari, Buxoro darvozalari nomini ifodalovchi toponimlarni tanlab kontekst va badiiy-tarixiy tasvirda tutgan o'rni haqida fikr bildirdik. Masalan: Latifjon maxdumning hovlisi Buxoroning Chorxaros guzarida bo'lib, bu guzar Gavkushon madrasasi bilan G'oziyon guzari o'rtasida edi. Xoja Uboniylar guzari shimoldan janubga qarab boradi. Usha guzar tamom bo'lgach, ko'cha sharqdan g'arbga buriladi. Chubin hammomi guzari ana shu burilishda<sup>13</sup>. Mana shu kabi o'nlab misollar asosida faslning mohiyatini talqin qildik.

Dissertatsiyaning II bobi **“Sadriiddin Ayniy asarlarida qo'llangan toponimlarning leksik-grammatik ma'nolari tasnifi”** tarzida belgilanib, bobning birinchi fasli “Sadriiddin Ayniy ijodida topoleksik talqin va toponimlarning etnolingvistik ifodasi” deb nomlandi. Sadriiddin Ayniy asarlaridagi leksik qatlamlarni kuzatish jarayonida ko'pgina toponimlar tarixiy xususiyatga ega ekanligi ayonlashdi. “Odina” povestidagi tarixiy voqealar Buxoro va Samarqand, Moskva va Sankt-Peterburg, Orenburg, Afg'oniston, Bokuda va hatto Makka shaharlarida, “Esdaliklar” (“Yoddoshtho”)da esa voqealar, asosan, hozirgi Markaziy Osiyo hududida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sodir bo'lganligi badiiy-tarixiy tasvirlar bilan bayon etilgan. VIII-XIII asrlarga oid voqealar aks ettirilgan “Muqanna qo'zg'oloni” (“Isyoni Muqanna”), shuningdek, “Tojik xalqi qahramoni Temurmaliq” (“Qahramoni xalqi tojik Temurmaliq”) tarixiy-adabiy ocherklarida o'zining asl qiyofasini saqlab qolgan ko'plab tarixiy toponimlar qayd etilgan. Demak, hozirgi vaqtda Toshkent Shosh bo'lgan, Shahrisabz Kesh bo'lgan, O'ratepa Asrushna bo'lgan va ushbu tarixiy nomlar bilan atalgan. Sadriiddin Ayniy ijodida mazkur maskanlarning tarixiy va hozirgi nomi mavjud.

Sadriiddin Ayniy asarlaridagi toponimlar etimologik, hamda u yoki bu tillarga mansublik jihatidan bir nechta guruhga bo'linadi. Ular fors-tojik, turk-o'zbek, arabcha kabi.

Sadriiddin Ayniy asarlarida oykonimlardan keyin kasb va hunar nomlarini o'z ichiga olgan toponimlar miqdoriy jihatdan ikkinchi o'rinni egallaydi. Ushbu komonimlar va shahar xoronimlarining ayrimlari haqida ma'lumot beramiz:

Guzari Hullabofon-Buxoroda hulla – “kiyim, chopon”, boftan “to'qimoq” fe'lining hozirgi zamon asosi va ko'plik qo'shimchasi -on qo'shimchasidan iborat bo'lib, “to'quvchilar guzari” ma'nosini bildiradi. “Hulla” so'zi ham ko'pchilik so'zlar kabi kam qo'llanib, faqat lug'atlarda saqlanib qolgan<sup>14</sup>.

“Назар ба қавли ӯ сангсоркунандагон мурдаи бар болои шутур овезоншудаи аробакашро ҳамчунон сангзанон ба кӯчаи калони Наддофон ва Тўқимдўзӣ бурда, аз Бозори Нав ба кӯчаи калони Лаби Рӯд гузашта, аз байни

<sup>13</sup> Айний С. Асарлар. Олтинчи том. Эсдаликлар. 3- қисм. –Тошкент: “Бадий адабиёт” нашриёти. 1965. – Б. 7-219.

<sup>14</sup> Айний С. Куллийет. Ҷилди 12. Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик. –Душанбе: Ирфон, 1976. – С.54.; Фарҳанги забони тоҷикӣ. – Ҷ. 2.– М.: “С... энциклопедия”, 1969. – С.757.

масчиди Хоча Калон ва Мадрасаи Нав ба кӯчаи Сесӯ даромада бо растаи Баззоӣ аз тоқи саррофон ва Чорсӯи Бухоро гузаронида, бо гузари Хуллабофон ва кӯчаи Мурғкушон то дарвозаи Қавола рафтанд”<sup>15</sup>.

Sadriddin Ayniy asarlaridagi toponimlarning leksik qatlami turkiy-o‘zbekcha so‘zlarni ham o‘z ichiga oladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Markaziy Osiyo hududida uzoq yillar davomida tojik va turkiy xalqlar yonma-yon yashagan. Bu birgalikdagi hayot va faoliyat toponimikada tarixiy fakt sifatida aks etadi. Shu singari etnik hodisalarning barchasi zikr etilgan xalqlar yashaydigan hududning toponimik tizimida bilvosita o‘z aksini topgan. Hozirda, asosan, turkiy-o‘zbeklar yashaydigan hududlarda tojikcha toponimlar yoki tojik komponentli toponimlar ko‘p, aksincha, tojiklar yashaydigan hududlarda, asosan, turkiy-o‘zbek komponentli toponimlar uchraydi.

Sadriddin Ayniy asarlarida sof turkiy-o‘zbekcha nomlar fors-tojikcha toponimlarga nisbatan kam uchraydi. Bir xil topokompleks yoki topoforlantlarga ega toponimlar qo‘llanilgan. Adib asarlaridan bir nechta turkiy-o‘zbekcha toponimlarini tanlab, ularning lisoniy xususiyatlarini oydinlashtirishga harakat qilamiz.

Dehayi Qaraxoni komonimi Buxoro viloyatida joylashgan qaraxoniylar yashagan qishloqni anglatadi. Ayrim turkiyshunos olimlar ushbu topoleksemaga e‘tibor berib, uning semantikasini turlicha izohlagan: “Fitotoponimlar tarkibida “kuchli, mustahkam”, oronimlar tarkibida “yo‘g‘on, zich, tarang, katta, keng, hududda” ma‘nolarini ifodalagan ba‘zi toponimlar ma‘nosida – chuqur, qorong‘i (ba‘zan “soya” ma‘nosida), shuningdek, ba‘zi orooykonimlarda – “zich, o‘tib bo‘lmaydigan”, musbat relyef shakllari (tog‘, tosh, tepalik, tizma nomlari tarkibida va hokazo), shuningdek, ulardan yasalgan oykonim va gidronimlar – “katta, baland, bahaybat”, aksar gidronik va gidronimlar tarkibiga kiruvchi “sifatsiz, ichimlik va suvdan boshqa foydalanish uchun mutlaqo yaroqsiz” degan ma‘noni bildirishini ta‘kidlaganlar<sup>16</sup>.

Bizning fikrimizcha, “qora” so‘zi kontekstda rang ma‘nosini anglatmaydi, balki etnonim bo‘lib, qishloq aholisi XI asrda hukmronlik qilgan qaraxoniylarga mansubligini ko‘rsatadigandek tuyuladi. Ikkinchi komponent “xon”, hukmdor bo‘lib, unga **i** izofasi qo‘shilib, “Qoraxoniylar qishlog‘i” ma‘nosini bildiradi. Sadriddin Ayniy ijodi toponimikasida arab tilidagi toponimlar alohida o‘rin tutadi. Arab toponimlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular, asosan, antropotoponimlar bo‘lib, ular tarkibiga komonimlar, nekronimlar, oykodonimlar va boshqalar kiradi. Bu islomda deyarli barcha avliyolarning nomlari madrasa, masjid va hokazolarga qo‘yilganligi bilan bog‘liq, qoida tariqasida ular uchun maxsus qabrlar qurilgan va ularning nomi bilan atalgan. Ularning nomi o‘zlari qurgan yoki mudarris bo‘lgan madrasalarga ham berilgan va bunday shaxslarning barchasi, odatda, kelib chiqishidan qat‘i nazar, arabcha nom olgan.

Bobning ikkinchi fasli “Sadriddin Ayniy asarlaridagi toponimlarning matn pragmatikasi asosida tahlil va tasnifi” deb nomlangan. Badiiy nutq va tasvirda

<sup>15</sup> Айний С. Ёддоштҳо. Ҷилди 7. Қисмҳои 3–4. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1962. – С.399.

<sup>16</sup> Ахмедов Т.М. О древнесемантических реликтах АГ/ак, гара/кара и сары в тюркских топонимах. Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1987. – С.23-24.

kontekstual toponimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sadridin Ayniy asarlari kontekstual toponimlarini turlarga nisbatan oykonim, urbanonim, gidronim, oronim, etnotoponim, antrotoponim, zootoponim kabi bir nechta guruhga ajraladi. Bularning har biri topoleksik xususiyatlariga ega. Ushbu ma'lumotlar turli-tuman toponim va oykonimlarning ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlangan.

“Farhangi zaboni tojiki”da “oykonim” istilohi o'zlashma so'z ekanligi (grekcha “oykos”) va ushbu istiloh hozirgi tojik adabiy tilida o'z ma'nosini bildiruvchi so'z sifatida qayd etilgan. Bu jihatdan olib qaralganda, aholi punktlari va uning ichki bo'linishlari – qishloq, qo'rg'on, ovul, mahalla, guzar, ko'chalar nomi “oykonim” deb yuritiladi. Oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, joy tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti – qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek, obyektning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir.

Sanggirdak–mazkur komonim tojik adabiy tilida dumaloq tosh yonida joylashgan qishloq yoki dumaloq toshlari ko'p bo'lgan joy ma'nosini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, “sangi girdak” so'z birikmasidan i izofasi tushganda esa “Sanggirdak” qo'shma so'zi hosil bo'lgan. Sadridin Ayniy asarlarida toponimlarning bir qismi sifatida ikkita tuzilmada, ya'ni murakkab so'z va iboradan tashkil topilgan toponimlar mavjud. “Sangsabz” shaklida ham uchraydigan “Sangi sabz”, shuningdek, i izofasi tushirilgan “Sanggirdak” qo'shimchasini bunday otlarga misol qilib keltirish mumkin. Ushbu koonimning birinchi qismi - sang, ikkinchi qismi – sabz (yashil) appellatividan tuzilgan. Ayonlashadiki, mazkur qishloqda yashil toshlar bor yoki bo'lgan va bu qishloqning o'ziga xos xususiyati edi. Bu koonim Buxoro viloyatida joylashgan.

“Дониёл бо 70 нафар аз милитсиягони худ, ки онҳоро худ баргузида ва худ тарбия карда буд, аз майдони корзор баромада босмачии мустақил шуда ба тарафи Санггирдак рафт”<sup>17</sup>.

Sadridin Ayniy asarlari toponimlarida Markaziy Osiyo shaharlariga nisbatan qo'llangan bir qancha “godonim” uchraydi. Godonim deganda shahar xoronimlari ham tushuniladi. Ba'zan shahar omonimlari va godonimlari bir xil nomga ega bo'lib, ular toponim hisoblanadi. Ammo hozirgi shahar guzarlarida hech qanday tarixiy toponimlar mavjud emas, ularda bir nechta godonim mavjud bo'lib, ular odatda antropotoponimlardir. Godonimlar tuzilishiga ko'ra odatda, iboralar hisoblanadi. Ko'cha va roh – “yo'l” atama-ko'rsatkichlari iboralarda faol ishtirok etadi.

Ko'chai Kalon. Ko'chai Kalon Buxoro shahridagi ko'cha nomi bo'lib, “ko'cha” + i izofasi – va kalon – “katta, kattaroq” leksemasidan hosil bo'lib, “katta ko'cha” ma'nosini bildiradi.

“Одамони риштадор сахари барвақт, пеш аз он, ки дари сарой кушода шавад, дар пеши дарвозаи он ғун шуда, кўчайи Калонро пур мекарданд, то ки

---

<sup>17</sup> O'sha joyda. – B. 58.

дар навбати аввал ва, ҳеч набошад, пештар ба пеша дуохон даромада рештаи худро хононд”<sup>18</sup>.

Бухоро тарихини ҳар томонлама о‘ргangan O.A.Suxareva yaxlit monografik tadqiqotida “Buxoro shahrida 360 mahalla”, shuningdek, toponimshunos olim N.Xanikov “Buxoro shahrida 360 ta masjid”, A.Vamber “Buxoro shahrida 365 ta masjid” mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi<sup>19</sup>. Sadriddin Ayniy asarlarida bir nechta madrasa va masjidning nomi qayd etilganligi kuzatiladi. Xususan, madrasai Miri Arab, Ko‘kaldosh, Nodirdevonbegi, Govkushon, Domullo Sher, Dorushshifo, Zargaron, Mirzo Ulug‘bek, Modarixon, Mullo Muhammadsharif, Muhammadali-Hoji, Nav, Olimjon, Rashid, So‘zangaron, So‘fiyon, Tursunjon, To‘pchiboshi, Fathullo Qushbegi, Xiyobon, Cho‘bini G‘ijduvon, Shodimbi, Eshonipir, Hoji Zohid, Husenboy, Ja‘farxoja, Jinon, Abdulloxon, Ayoz, Badalbek, Bozori Xo‘ja, masjidi Modari Xon, Boloi Havz, Labi Havzi arbob, Mag‘oq, Mag‘oqi Buxoro, Moh, Kalon, Pochchoqul Hoji, Xoja, Xoja Kalon, Shayxsho va hokazo.

Demak, tarixiy davrlarda Buxoroda madrasa va masjidlar nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Bugungi kungacha bir nechta madrasa va masjidlar tarixiy va qadimgi nomini saqlab qolgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Sadriddin Ayniy asarlarida topoformantlarning grammatik-struktural xususiyatlari**” tarzida belgilanib, birinchi fasli “Affiksatsiya usuli asosida strukturaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan toponimlar” deb nomlangan. Topoformantlar o‘zining lisoniy-funksional vazifalari bilan badiiy-tasviriy ifodada muhim ahamiyat kasb etadi. Topoformantlarni qo‘llash sohasida Sadriddin Ayniy yuksak mahorat va tajribasini namoyon etgan. Adibning asarlarida topoformant hodisasi tojik adabiy tilida mavjud bo‘lgan -zor, -on, -yon, -cha, -ak, -iston, -goh, -don kabi affikslar hamda manzil, aholi yashash joy nomlari ma’nosini bildiruvchi so‘zlar, jumladan, kent//kand, mitan//metan, kon//kom, band, rabot, qal’a, ko‘cha, guzar, tepa, masjid, madrasa, shuningdek, tojikcha+tojikcha, tojikcha+o‘zbekcha, o‘zbekcha+tojikcha, tojikcha+arabcha, arabcha+tojikcha, arabcha+o‘zbekcha, o‘zbekcha+o‘zbekcha, tojikcha+o‘zbekcha+arabcha strukturaviy tuzilishdan iborat bo‘lgan toponimlar, izofat hodisasi bilan sintaktik strukturaviy ko‘rinishida ega bo‘lgan so‘z birikmalari kuzatiladi.

Bularni e’tiborga olib, adib ijodida mavjud bo‘lgan topoformant hodisalarni quyidagi guruhlariga ajratish orqali ma’lumot berishni joiz deb bildik:

1. Toponimik nomlarning asosiy qismi (o‘zak) ga affiks (qo‘shimcha) qo‘shilib, yaxlit ko‘rinish va ma’noga ega bo‘lgan toponimlar. Affiksatsiya usuli.

2. Toponimik nomlarning asosiy qismiga qo‘shilgan tojik adabiy tili va uning nutq uslublarida qo‘llaniladigan lug‘aviy-leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar. Morfologik usul.

3. Tojik adabiy tiliga xos bo‘lgan bandaki izofi (i) qo‘llash orqali qo‘llanilgan toponimlar. Sintaktik usul.

<sup>18</sup> Айний С. Ёддоштҳо. Ҷилди 7. Қисмҳои 3–4. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1962. – С.540.

<sup>19</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Историко – этнографические очерки. –Ташкент: Изд.АН Узб. 1958. – С.68.

Sadriddin Ayniy ijodida G‘oziyon bilan to‘rt holat talqini kuzatiladi. Bular guzar, bozor, hovuz, hammom nomi ekanligi. Quyidagi misollar mazkur fikrlarimizni asoslaydi.

